

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

2/1-son
(Mart-Aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MAKATBGACHA TA'LIM

M. Alimardonova	93	Maktabgacha ta'lism tashkilotida tarbiyalanuvchilarning kognitiv ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ta'limi o'yinlarni tashkil etish
K.T. Pardayeva	98	Maktabgacha yoshdagagi bolalar nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish

MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

A. Jabborov	104	Mustaqillik yillarda miniatyura san'ati
M. Xudayberdiyeva	107	5-7-sinf o'quvchilarini milliy musiqa cholg'ularida ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK

G. Yadgarova	114	Ekologik madaniyat va shaxs sifatida shakllanayotgan kelajak avlod
---------------------	-----	--

PSIXOLOGIYA

M. Jo'raxo'jayev	121	Bolalarda ruhiy rivojlanishi buzilishining muammosining dolzarb masalalari
-------------------------	-----	--

QIYOSIY PEDAGOGIKA

M. Abdufattoxova	127	"Ustoz-shogird" an'analari rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi
-------------------------	-----	---

KORREKSION PEDAGOGIKA

F. Qodirova	131	Individual ta'lim bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali omili sifatida
--------------------	-----	---

EDUCATION AND UPBRINGING METHODOLOGY

G. Abilova, M. Narimbetov	134	Implementing digital technologies in teaching english language skills
D. Iminova	138	Factors for the development of reading motivation in elementary school students
G. Mominova	141	Pedagogical conditions for the organization of home education for students with disabilities

Feruzaxon QODIROVA,

CHDPU, pedagogika fanlari doktori, professor

INDIVIDUAL TA'LIM BO'LAJAK MAXSUS PEDAGO- GLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING SA- MARALI OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoniga, olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga talabalarni tayyorlash muammosi yoritildi. Shuningdek maqolada, kasbiy faoliyatga talabalarni tayyorlashning samarali omillaridan biri hisoblangan individual ta'lif zarurati va uning aspektlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Individual ta'lif, imkoniyati cheklangan bolalar, ta'lif oluvchilar, kasbiy faoliyat.

В статье освещена проблема подготовки студентов к процессу обучения и воспитания детей с ограниченными возможностями здоровья, а также моделирования непрерывной коррекционной подготовки. Также в статье рассматривается необходимость и аспекты индивидуального обучения, которое считается одним из эффективных факторов подготовки студентов к профессиональной деятельности.

Ключевые слова. Индивидуальное обучение, дети с ограниченными возможностями, студенты, профессиональная деятельность.

The article highlights the problem of preparing students for the process of teaching and raising children with disabilities, as well as modeling continuous correctional training. The article also examines the need and aspects of individual training, which is considered one of the effective factors in preparing students for professional activities.

Key words. Individual education, children with disabilities, students, professional activities.

Mamlakatimizning ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlarning muhim vazifasi sifatida yoshlarni insonparvarlik g'oyalari asosida tarbiyalash, muayyan kasbiy faoliyatga tayyorlash belgilangan. Kasbiy faoliyatga maqsadli ravishda tayyor bo'lishning bosh omili bu shaxsnинг individuallik va uning negizida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalardir. Individual ta'lif jarayonida shaxs va uning qiziqishlari, xohish va mayllari oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladi. Natijada o'qitish jarayonlarining insonparvarlik tamoyillari asosida olib borilishi ta'minlaydi. Ma'lumki, korreksion-pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda maxsus pedagogdan yuqori bilim va kasbiy mas'uliyat talab qilinadi. Bu bilim, ko'nikma va malakalar oliy ta'lilda tashkil etiluvchi nazariy va amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ta'lif jarayonida hamda malakaviy va pedagogik amaliyot davrida tizimli shakllanishi ko'zda tutiladi. Maxsus pedagogika sohasida kadrlarni har tomonlama sifatli etib tayyorlashda talabalarning kasbiy yo'nalgan faoliyatini zamon talablari doirasida takomillashtirish taqozo etiladi. Individual ta'lilda muhim ikki yo'nalishni ta'kidlash joiz: falsafiy (bilish, dunyoqarashni shakllantiruvchi jarayon), pedagogik (o'zlashtirish jarayoni). Chunki yakka yondashish shaxsga yo'naladi, uning bilish jarayoniga ta'sir qiladi, buning uchun esa, muayyan usullar, vositalar asosida o'zlashtirish muhitini yaratiladi. Agar shu ikkala komponent maqsad nuqtasi bo'lmasa, individual ta'lif o'z mohiyatini yo'qotadi. Uning zarurati sezilmaydi.

Sog'lim bolalar kabi u yoki bu nogironlikka mansub bolalar ta'limi va tarbiyasiga oid buyuk mutafakkirlarning asarlarini tahlil qilar ekanmiz, mazkur asarlarda nogiron

bolalar ta'lism tarbiyasining metodologik asoslariga doir qarashlar mayjudligiga guvoh bo'lamiz. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarimiz jamiyatni bir butunlik deb qarab, unda barcha insonlar tengdir deb hisoblaganlar. Demak, imkoniyati cheklangan bolalar ham jamiyatning teng huquqli a'zosidir. Ular ham o'z imkoniyatlari darajasida sifatli ta'lism tarbiya olish huquqiga egadir. Asrlar davomida o'zining muayyan asosiga ega bo'lgan maxsus pedagogika sohasida olib borilayotgan tadqqiqotlarda soha mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qator davlatlarda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovasion mexanizmlarini amaliyotga joriy etishga doir tadqqiqotlar o'tgan asrning oxirida jadal olib borildi. Masalan, 1990 yilda Tailandda Umumjahon Konferensiyasining bo'lib o'tishi va unda "Ta'lism hamma uchun" Umumjahon Deklaratsiyasining qabul qilinishi ham bu sohada katta burilishlarga turtki bo'ldi. Ta'lism olishga barcha haqli va barcha o'z imkoniyatlari doirasida axborotlarni o'zlashtiradi, muayyan kasbni egallaydi. Xuddi shu bosqichlarni nogiron bolalar ham o'taydi. Ular ham ijtimoiy hayot talab qiluvchi ko'nikma va malakalarni ilk yoshdan egallahsga jalb etiladilar. Biroq bu jarayonni maxsus defektologik ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan tashkil etilmasa, nogiron bolalarda mavjud nuqsonlarning tuzatilishi va bartaraft etilishiga erishish imkoniyati pasayadi. Shuning uchun imkoniyati cheklangan bolalar ta'lismi maxsus pedagogikaning mustaqil bo'limlari hisoblangan surdopedagogika, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika, logopediya oidi bilim, ko'nikma, malaka va albatta, kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislar tomonidan olib borilishi xukumatning qator xujjalardida alohida me'yor sifatida belgilab qo'yilgan.

Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoniga paralel ravishda olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlarni modellashtirishga talabalarni tayyorlash muammosiga dolzarb sanaladi.

Individual ta'lism o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra ham pedagogik, ham psixologik tavsifga ega qarashlar, qoidalarni mujassam etadi. Individual ta'lism har bir ta'lism oluvchining o'zигагина xos bo'lgan potensialni, noyob qobiliyatlarni yuzaga chiqarish orqali pedagogik jarayonning ijtimoiy ehtiyoj ekanligini yuzaga chiqarishni ko'zda tutadi.

Individual ta'lism qator yetakchi davlatlarda o'tgan asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ayniqlsa, kadrlar tayyorlash tizimida o'zining ijobjiy natijalarini namoyon etgan. Jumladan, AQSH, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Germaniya, Avstriya, Fransiya kabi davlatlarda nafaqat oly ta'lism, balki umumiyl o'rta ta'lism tizimida individual yondashuvga qaratilgan davlat miqyosidagi ish dasturlari va konsepsiyalari joriy etilgan. Mazkur mamlakatlarning ta'lism siyosatida o'quvchilar va talabalarning individual ishlashlari uchun moslashuvchan pedagogik muhit yaratishga ustuvorlik beriladi. Buning eng muhim komponenti sifatida pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari tan olinadi. Chunki ta'lism oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlari yo'naltirilgan o'quv muhitini tashkil etish uchun pedagogdan tashkiliy, axborot, psixologik, diagnostik, metodik, lingvistik va boshqa kompetensiyalar taqozo etiladi. Individual ta'limdpedagog bola, o'quvchi, talaba va tinglovchini to'liq o'rganadi. O'rganish natijalari asosida ta'lism jarayonini modellashtiradi. Natijada ta'lism jarayonida duch keladigan akademik bo'shiqlarni to'ldirish, ta'lism oluvchilardagi mavjud individual qiyinchiliklarni bartaraf etish muhiti yaratiladi.

O'quv faoliyatini individuallashtirish bugungi kunda dolzarb didaktik muammolaridan biri hisoblanadi. Bu masala ta'lismning turli bosqichlarida turli yondashuvlar asosida yechilishi mumkin. Oly ta'limdpedagoglarning o'quv faoliyati, ma'naviy harakatlari, shaxsiy rivojlanishini tashkil etish bilan bog'liq muammolar yechimiga qaratiladi. Chunki talabalar individual tavsiflari bilan o'zaro bir-birlaridan farqlanadilar. Shuning

uchun ham, ularning individual rivojlanish jarayoni turlicha kechadi.

Ta'lim oluvchilarning individualligini hisobga olish jarayonini quyidagi tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- har bir ta'lim oluvchiga individual yondashgan holda ta'lim-tarbiya berish;
- o'ziga xos imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'quv materiallarini modellashtirish.

O'quv jarayonini individuallashtirish va modellashtirish tushunchalari bugungi kunda keng ko'lamma tadqiq etilmоqda. Bunday yondashuv O'zbekiston ta'lim tizimida asrlar davomida mavjud bo'lgan. O'tmishda maktablar ayniqsa, madrasalarda ta'lim oluvchilarga alohida yondashilgan holda, ularning qiziqishlari va intilishlarini hisobga olib ta'lim-tarbiya berilgan. Har bir ta'lim oluvchining muayyan mavzuni bilish imkoniyatlari va o'zlashtirish darajalari aniqlangandan keyingina, unga navbatdagi topshiriq berilgan. Uzoq yillar mobaynida jamiyatda ta'lim oluvchilarning individual taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim aynan bola shaxsi imkoniyatlariga yo'naltirilishi va amaliy faoliyat negiziga qurilishi jarayondan kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Shuning uchun Sharq mutaffakkirlari va faylasuf olimlar ham qadimdan shaxsning individual ta'limi muammosi bilan bevosita shug'ullanib kelganlar. Ular shaxsning individual rivojlanish istagi va imkoniyatlarining namoyon bo'lishini shaxsiy sifatlar o'zgarishi bilan bog'liq holda o'rganganlar. Ma'lumki, individual ta'lim ichki va tashqi pedagogik ta'sirlar bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Bu haqida E.G'oziyev, R.Safarova, A.Tereshenkolarining tadqiqotlarida ilmiy xulosalar berilgan. Ta'lim oluvchilarning xohishiga ko'ra yo'naltirilgan pedagogik jarayon davomida tashqi (qo'llaniluvchi usullar, vositalar, o'zaro muloqot, topshiriqlar) hamda ichki (xotira kuchi, diqqat ko'lami, idrok, sezgi, nutq, hoxish, mayl...) kuchlar o'rtaida nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Bu vaziyat hozirgi kunda amaliyotni kuzatish jarayonida ma'lum bo'ldi. Ya'ni oliy ta'limda individual ta'limning muayyan elementlarini takomillashtirishga ehtiyoj mavjud. Asosan, har bir talaba uchun pedagog tomonidan tuzilgan individual rivojlanish dasturi tarkibidagi komponentlarni optimallashtirish, shaxs-mutaxassis rivojlanishiga bog'liq sferalarni ijtimoiy buyurtma talablari doirasida hamda talabalarning aksariyatida uchraydigan sifatlar va bo'shlqlar bo'yicha turkumlashga e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim jarayonini individual tashkil etishga tayyorlashda oliy ta'limda o'qitish jarayonining o'zini individual yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Individual kasbiy rivojlanish dasturi asosida o'z trayektoriyasini tuzgan va u asosida harakatlangan talaba, kelajakda nogiron bolaning o'zigagina xos individual rivojlanish dasturini tuza oladi, korreksion mashg'ulotlarni modellashtira oladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. Academic research in educational sciences, 2(3), 521-527.
2. Usmanovna, Q. F. (2021). Metodik klaster zamonaviy maktabda sog'lom raqobat vositasi sifatida. Современное образование (Узбекистан), (2 (99)), 46-50.
3. Usmanovna, Q. F. (2018). Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovasion texnologiyalari. Современное образование (Узбекистан), (8), 73-79.
4. Usmanovna, Q. F. (2018). Zamonaviy ta'lim texnologiyalari kar va zaif eshituvchi bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali omili sifatida. Современное образование (Узбекистан), (10), 55-62.
5. Кодирова, Ф. У. (2021). Оптимальные пути решения методических проблем инклюзивного образования. integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 2(4), 216-224.